

TTPUda “XOTIN-QIZLAR O`RTASIDA TAZYIQ VA ZO`RAVONLIKLARNI OLDINI OLISH” MAVZUSIDAGI TADBIR BO`LIB O`TDI.

2023-yil 01-noyabr kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalariga “Xotin-qizlar o`rtasida tazyiq va zo`ravonliklarni oldini olish” mavzusida tadbir o`tkazildi.

Dastlab kirish so`zini universitet Xotin-qizlar masalalari bo`yicha rektor maslahatchisi F.Nabixanova boshlab berdi. So`zida ayollarning huquqlari davlat tomonidan, yangi ishlab chiqilgan Konstitutsiyada ham o`z tasdig`ini topganligi ayollarga nisbatan qo`llanilayotgan zo`ravonliklarga nisbatan qat`iy chora-tadbirlar qo`llanilayotganligi to`g`risida aytib o`tdi.

Olmazor tumani IIO FMB 4-son IIB XQMBI katta leytenant O.Ismoilova 2019-yil 2-sentyabr kuni qabul qilingan O`RQ 562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to`g`risida”gi, xuddi shu kuni qabul qilingan 561-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish to`g`risida”gi qonunlarining mazmun-mohiyatlari tushuntirib o`tildi. Bundan tashqari himoya orderi nima ekanligi, undan qay tartibda foydalanish mumkinligi, himoya orderi shartlari buziladigan bo`lsa qanday javobgarlik masalalari borligi bo`yicha talabalarga tushuntirish ishlari berib o`tildi.

4-son IIB HPB katta profilaktika inspektori podpolkovnik

Sh.N.Yusupov o'quvchi-talabalarga universitet ichki tartib-qoidalariga amal qilib yurishlari lozimligi, turli xil huquqbuzarlik holatlarini sodir etmasliklari kerakligi to'g'risida ogohlantirib o'tdilar.

Ma'ruza so'nggida tyutorlar ichki tartib-qoidalarga barcha talabalar bo'ysunishi kerakligini aytib yig'ilishga yakun yasaldi.

